



"KICHKINA SHAHZODA" ASARINING FALSAFIY TAHLILI: ONTOLOGIYA,
AKSIOLOGIYA, ETIKA VA EKZISTENSIAL YONDASHUVLAR

Raxmonova Nigina Abdiraufovna

*Termiz davlat universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti kutubxona va axborot faoliyati yo'nalishi 2-
bosqich 124-guruh talabasi*

Bo'riyev Fazliddin Faxriddinovich

Termiz davlat universiteti tarix fakulteti falsafa kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarning ontologik, aksiologik, etik, gnoseologik, ekzistensial, gumanistik va fenomenologik qatlamlari ilmiy asosda sharhlanadi. Muallif tomonidan yaratilgan ramziy obrazlar — gul, tulki, qirol, biznesmen, geograf va boshqalar — turli falsafiy tushunchalarning badiiy ifodasi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda asarning asosiy g'oyasi sifatida insonning ichki dunyosi, mas'uliyati, sevgi va do'stlikning ma'naviy ahamiyati hamda "yurak bilan ko'rish" falsafasi ko'rsatib beriladi. Maqola "Kichkina shahzoda"ni bolalar ertagi emas, balki inson borlig'i, hayot mazmuni va qadriyatlar tizimini yorituvchi universal falsafiy asar ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Kichkina shahzoda, falsafiy tahlil, ontologiya, aksiologiya, etika, gnoseologiya, ekzistensializm, gumanizm, fenomenologiya, simvolizm, qadriyatlar, ma'naviyat, mas'uliyat, sevgi, do'stlik, ramzlar tizimi, bolalik falsafasi, inson borlig'i, ma'no izlash, axloqiy qarashlar.

KIRISH

Antuan de Sent Ekzyuperining "Kichkina Shaxzoda" asari bolalar uchun yozilgandek tuyuladi, lekin aslida bu asar butun insoniyat uchun yozilgan falsafiy asardir. Unda inson hayoti, muhabbat do'stlik vijdon, ma'suliyat, go'zallik va hayotning ma'nosi haqida chuqur fikrlar bor. Yozuvchi oddiy voqealar orqali bizga katta hayot boyicha xabar baeradi. Kichkina shahzoda bolalikning soddaligi, pokligi va samimiyatning ramzi. Asarda bir turiga mos keladi. Quyida shularni quydagicha keltirgan 1. Ontologiya-hayot va mavjudlik haqida. Ontologiya bu "borliq falsafasi" degani. Ya'ni, hayot nima, biz kim, nima uchun yashaymiz degan savollarni o'rganadi. Kichkina shahzoda yolg'iz bir sayyorada yashaydi, u gulini parvarish qiladi, yulduzlarga qaraydi. Bu orqali muallif insonning borligi va hayotdagi o'rnini haqida o'ylashga undaydi. "kattalar hech narsani ozlari tushunmaydilar". Bu gap shuni bildiradiki, inson o'sgan sari hayotning sail ma'nosini unitadi, faqat tashqi narsalarga e'tibor beradi. Ontologiya nuqtai nazaridan, bu hayotning asl mohiyati yoqolayotganini ko'rsatadi.

Aksiologiya-bu hayotdagi eng muhim narsalar: muhabbat, sadoqat, vijdon, d'stlik mehri kabi qadriyatlarni o'rganadi asardan misol: "sen o'zing parvarish qilgan gul uchun javobgarsan". Bu degani, inson sevgan narsasi yaqin odamlari, ishlari uchun javobgar bo'lishi kerak. Bu ma'suliyat falsafasidir. Asar o'quvchiga "yashash faqat nafas olish emas, balki kimnidir sevisish va unga g'amxo'rlik qilish" degan fikrni o'rgatadi. Etika-axloq falsafasi- etik inson qanday yashashi, qanday inson bo'lishi kerakligi haqida. Unda



yaxshilik va yomonlik, vijdon, halolik kabi tushunchalar muhim. Asardan misol: Tuliki aytadi: "faqat yurak bilan to'g'ri ko'rish mumkin. Eng muhim narsalarni ko'z bilan ko'rish mumkin emas". Bu so'zlar hayotda eng muhim narsa- bu qalb pokligi ekanligini bildiradi. Yaxshi inson bo'lish, mehribonlik, samimiyat- bular etikaning markazida turadi. Ginoseologiya-bilish falsafasi. Bu falsafa "inson haqiqatni qanday biladi?" degan savolga javob izlaydi. Kichkina shahzoda asarida bilish faqat aqil orqali ema, his va yurak orqali ham bo'lishi kerakligini aytadi. Ekzistensializm-hayot ma'nosini izlash falsafasi. Bu asarning eng markaziy qatlamidir. Ekzistensializm yondashuv nimada? Shahzoda turli sayyoralarga borib, hayotning ma'nosini izlaydi. Har kim o'z ma'nosini o'zi yaratishi kerakligini ko'rsatadi. Inson borligi-tanlovlar va ma'suliyati orqali shakllanadi." Eng muhim narsasi ko'zga ko'rinmaydi". Bu Ekzistensialistlarning "borliq-ichki tajriba" degan fikriga mos. Gumanizm-insonparvarlik falsafasi-asarda insonning qadr-qiymati va ma'naviy olami markazga qo'yiladi. Asarda gumanizm qanday namoyon bo'ladi? Katta odamlarning pul, raqam va martabaga berilish tanqid qilinadi. Yaxshi inson bo'lish, mehr bilan yashash eng muhim qadriyat sifatida ko'rsatiladi. Do'stlik, sadoqat, sevgi-insonning eng ulug' boyligi sifatida talqin qilinadi. Tulkining g'oyasi gumanizmni ifodalaydi." Sen mansub bo'lgan narsaning oldida sen mas'ulсан" bu haqiqiy insoniylik mezonі.

Simvolizm-ramzlar orqali fikr berish hisoblanadi. Asardagi deyarli barcha obrazlar ramziydir. Asarda ramzlar shunday ishlatilgan:

- Gul-sevgi, noziklik ma'sulliyat.
- Tulki-donolik, munosabatning mohiyati.
- Qirol ma'nis hokimiyat.
- Biznesmen-materializm.
- Manman ekoizm.
- Ichkilikbozlik-qochish, ojizlik.
- Geograf-nazariya amaliyotsiz bo'lsa befoydadir.

Etika (axloq falsafasi)-Asarda eng muhim qism-yoshlikni tanlash, ma'suliyatni olish, boshqaning dardini his qilish. Etik g'oyalari: Inson boshqaga bog'langanida ma'naviy yetiladi. Sevgi faqat his emas, balki ma'suliyat, yaxshi inson bo'lish-ijtimoiy emas, shaxsiy tanlov. Shaxzoda guli uchun qaytishi axloqiy qaror hisoblanadi. Fenomenologik qarashlar asarda quyidagich yondashuvlar mavjud. Unda: "Yurak bilan ko'rish" -ob'yektning ichki mohiyatini idrok qilish. Haqiqiy borliq-tashqi emas, ma'naviy dunyodir. Har bir odam dunyoni o'z psixakasi va qadriyatlari orqali ko'radi. Shaxzoda narsalarning tashqi ko'rinishini emas, mohiyatini tushunadi.

Absurd falsafasi -mantiqsiz, bo'sh harakatlarni tanqid qilish: Asarda shunday ifodalaydi: Ba'zi personajlar absurd falsafasida ifodalanish quyidagicha: Ichkilikbozlik: ichadi- uyat-yana-ichadi-mantiqsiz doira.

Manman:Maqtovg'a o'ch bo'lib qolish hech narsa qilmaydi. Qirol:-Hechkim bo'lmasa ham buyruq beradi. Biznesmen: Yulduzlarni sanaydi, lekin ularning mohiyatini bilmaydi. Bu mavjudlikning ma'nosiz tamoni haqida tanqidiy qarash.

Ontologiya-borliqning mohiyani nima? Asarda borliqni uch darajada tushunturadi:

1. Shaxsiy borliq (ichki olam)-unda shaxzoda o'z guli bilan munosabatida shaxsiy borliqni anglaydi.



2. Ijtimoiy borliq (odamlar bilan uchrashuv). Har bir sayyora-ijtimoiy borliqdagi bir ko'rinish.

3. Umumiy borliq (koinot) ya'ni- olamning cheksizligi, insonning kichikligi, ammo ma'naviyatning ulug'ligi ko'rsatiladi. Ontologik xulosa: Borliq-tashqi emas, ichki ma'noda shakllanadi.

Pedagogik falsafa-bolalarning ko'zi bilan dunyoni ko'rishi.

Asarda "katta odamlar" doim tanqid qilinadi. Chunki: Kattalar tasavvurdan mahrum, faqat raqam va foyda bilan yashaydi. Ichki bolalikni yuqotgach, haqiqatni ko'ra olmaydi. Shaxzoda-insonning yuqotib qo'ygan "pok bolalik olami" hisoblanadi.

Kichkina shaxzoda- bu Ekzistensializm, gumanizm, simvolizm, etika, ontologiya va fenomenologiyaning uyg'unlashgan falsafiy asaridir. Asarning bosh g'oyasi: Haqiqiy borliq tashqi ko'rinishda emas, yurakning idrokida. Insonni inson qiladigan narsa-sevish, do'stlik va ma'suliyat. Olamning qiymat-unga qanday ma'noni biz berishimizda. Asarda inson, borliq munosabat, ma'naviyat, maqsad va hayot ma'nosi haqida chuqur qarashlar mujassamdir.

Aksiologiya-bu hayotdagi eng muhim narsalar: muhabbat, dsadoqat, vijdon, do'stlik, mehr kabi qadriyatlarni o'rganadi.

Asardan misol: "Sen o'zing parvarish qilgan gul uchun javobgarsan".

Bu degani, inson sevgan narsasi, yaqin odamlari, ishlari uchun javobgar bo'lishi kerak. Bu ma'suliyat falsafasidir. Asarda o'quvchiga "Yashash faqat nafas olish emas, balki kimnidir sevish va unga g'amxo'rlik qilish" degan fikrni o'rgatadi.

Etika-axloq falsafasi-etika inson qanday yashashi, qanday inson bo'lishi, kerakligi haqida fikr yuritadi. Unda yaxshilik va yamonlik, vijdon, halollik kabi tushunchalar muhimdir. Asardan misol; Tulki aytadi: "Faqat yurak bilan to'g'ri ko'rish mumkin. Eng muhim narsalarni ko'z bilan ko'rish mumkin emas." Bu so'zlar hayotda eng muhim narsa-bu qalb pokligi ekanligini bil;diradi. Yaxshi inson bo'lish, mehribonlik, samimiyat-bular etikaning markazida turadi.

Ginoseologiya-bilish falsafasi.

Bu falsafa "Inson haqiqatni qanday biladi?" degan savolga javob izlaydi. Kichkina shaxzoda asarida bilish faqat aql orqali emas, his va yurak orqali ham bo'lishi kerakligini aytadi.

Asardan misol: "Kattalar raqamlarni yaxshi ko'radilar". Bu yerda yozuvchi kattalarning faqat fakt va pul haqida o'ylashini tanqid qiladi. U shunday demoqchiki, inson haqiqatni faqat miqdor bilan o'lchay olmaydi-haqiqiy bilim yurakdan chiqadi.

Ijtimoiy falsafa-jamiyat haqida insonlar o'rtasidagi munosabatlar, adolat, hokimiyat, boylik haqida o'rganadi. Kichkina shaxzoda turli sayyoralarda turli odamlarni uchratadi: Podshoh, mast, biznesmen, chiroq yoquvchi,geograflarni uchrashini ta'riflagan. Har biri jamiyatdagi bir inson turini ifodalaydi.Kichkina shaxzodaning birinchi borgan sayyorasidagi holat: "Podshoh buyuradi,lekin hech kim uni tinglamaydi". Ikkinchi sayyoradagi holat: "Biznesmen yulduzlarni sanaydi, lekin ularning g'oyasidir.Harbir kishi o'z sayyorasiga mas'uldir" degan jumlgacha duch keladi. Bu fikr insonning mavjudlikdagi shaxsiy ma'suliyatini ifodalaydi. Har kim o'z hayotining mazmunini o'zi yaratadi. Bu Ekzistensializmni nazariy g'oyasidir. Ekzistensializm-Insonning mavjudligi va tanlovi



degan ma'nolarni bildiradi. Bu falsafa "men kimman?", "mening hayotimning ma'nosi nima?" degan savollarga javob izlaydi. Har bir inson o'z hayotining ma'nosini o'zi yaratadi degan g'oyani ilgari suradi.

Yuqoridagilarga tayangan holda kichkina shaxzoda asaridan misol: "Har bir kishi o'z sayyorasiga mas'uldir" degan biznesmenning gapini eslaylik. Bu gap har kim o'z hayotiga o'z harakatlarini o'zi javobgar degani. Bu ekzistensializm falsafasining eng muhim fikridir.

Etika-go'zallik falsafasi hisoblanadi. Etika-bu go'zallikni his qilish, tabiat, san'at va inson ruhining nafasligi degan ma'nolarga ham egadir. "Kichkina shaxzoda"da go'zallik faqat tashqi ko'rinishda emas, ichki poklik va mehrda deb aytiladi. Bunga asardan misol: "Gul chiroyli, lekin uning go'zalligi unga mehr bilan qaraganda paydo bo'ladi". Demak, go'zallikni yurak bilan ko'rgan odamgina haqiqiy go'zallikni anglay oladi.

Diniy falsafa-ruhiyat va e'tiqod haqida fikr yuritadi. Asarda to'g'ridan-to'g'ri diniy so'lar ham, lekin unda ruhiy poklik, ishonch, sodalik kabi g'oyalar bordir.

Kichkina shaxzoda asaridan misol:

"Yulduzlar yurakka nur beradi". Bu so'zlar ruhiy tinchlik va ilohiy ishonchni bildiradi. Inson hayotida faqat moddiy emas, ruhiy ozuqa ham kerak. "Kichkina shaxzoda bu oddiy ertak emas", balki hayot falsafasi hisoblanadi. Asarning asosiy falsafiy g'oyalaridan biri- insoniylik va ichki dunyo falsafasidir.

Kichkina shaxzoda-sof qalbli, beg'ubor ongli, hayotning haqiqiy mazmunini izlovchi obraz. Bu obraz orqali yozuvchi insonning asl tabiatiga-poklik, samimiylik, mehr kabi asosiy qadriyat sifatida ko'rsatadi. G'oya haqiqiy go'zallik ko'zga emas, ko'ngilga ko'rinadi. Bu fikr insonning ichki dunyosi tashqi ko'rinishdan ustun turishini anglatadi. Ma'suliyat falsafasi-unda "sen qo'lga o'rgatganing uchun javobgarsan". Bu asarda eng mashhur fikrlardan biri tulkining so'zlarida ifodalanadi.

"Sen o'zing qo'lga o'rgatganing uchun javobgarsan". Bu juda chuqur falsafiy tamoyil hisoblanadi.

Mazmuni: Insonga kimga mehr bersa, kimni hayotda yaqin olsa, uning oldida axloqiy ma'suliyatni zimmasiga oladi. Bu g'oya zamonaviy etika va ekzistensializm bilan bog'liq. Kattalar dunyosining tanqidiy-asarda uchraydigan kattalar-astronom, ichkilikboz, biznesmen, geograflar-har biri ma'lum bir falsafiy tanqidni ifodalaydi: Astronom-tashqi allomalar bilan band, mohiyatni unutgan. Biznesmen-boylik ortidan quvib, hayot mazmunini yuqotgan. Ichkilikboz-o'z zaifliklari oldida ojizlik timsoli. Geograf ilmni biladi, lekin o'zi yo'lga chiqmaydi. Nazariy va amaliyot parchalanishi keng yoritilgan.

Yozuvchi shuni aytadi: Kattalar ko'p narsani his qilishni bilmaydi, balki faqat raqamlar,foyda, martaba haqida o'yladilar.

Kichkina shaxzoda bilan tulki o'rtasidagi munosabat-do'stlikning falsafiy modeli. Tulki kichkina shaxzodaga do'stlik, ma'suliyat, yaqinlik faqat "Yurak bilan ko'riladigan" jarayon ekanligini o'rgatadi. Asardagi ramzlarning falsafiy ma'nolari quyidagilar: Gul faqat go'zallik emas, insonning sevadigan odami timsoli. Nozik, injiq, talabchan, ammo niyoyatda qadrlil.

Falsafiy talqin: Gumanizm: muhabbat-mehr va g'amxo'rlik natijasida paydo bo'ladi. Ekzistensializm: muhabbat insonni "O'zini topishga" undaydi.



Idealizm: sevikli odamning qiyofasi ruhida abadiy yashaydi. Muallif gul orqali shuni ko'rsatadiki; go'zallik-sinov. Uni tushunish uchun qalb yetuk bo'lishi kerak. Asarda kattalar bir necha obrazlarda berilgan. Qirol-hokimiyat illyuziyasi-o'zini hamma narsaga hukmron sanaydi. Ammo amalda hech narsaga qodir emas. Falsafiy tahlil: Nihializm va absurd-hokimiyatning boshlig'i degan ma'nolarda ifodalanadi.

Mamnun, maqtanish, ehtiyojiga qaramlik falsafiy qaramlik: Egoizmga tanqid (stoitsizm va yetuk falsafada). Tulki-donishmandlik ramzi. Tulkining asosiy g'oyalari: Meni avval qo'lga o'rgatish kerak, senga bo'g'lanish-ma'suliyatdir, yurak bilan ko'rish mumkin. Stoitsizm, sabr o'zini boshqara bilish, ekzistensializm: yurak orqali haqiqiylikni tan olish, etika: do'stlik mas'uliyatni talab qiladi. Tulki kichkina shaxzodaga hayot falsafasini o'rgatadi. Kitobning yakunida shaxzoda "tanasidan voz kechadi" lekin aslida bu tasvir metaforik o'tishdir. Falsafiy mazmuni: -moddiylikdan ruhiylikka o'tish, yaxshilikning o'lmasligi. Bu Platon, Suqrot va tasavvuf falsafalariga o'xshaydi. Kichkina shaxzoda sodda tilda yozilgan, lekin iboralarida chuqur falsafiy qatlam bor. Masalan: "Kattalar hech narsani tushunmaydi"-bu gap empirizm va radsionalizmga tanqid: Kattalar faqat fakt orqali ko'rishadi. Insonning eng katta boyligi-yurak bilan ko'ra olish qobiliyatidir. Shaxzoda ketgach, uchuvchi yulduzlarga qarab uni eslaydi. Yulduz-ruhiy energiya, sevgining abadiyligini ifodalab ketgan.

Xulosa

"Kichkina shahzoda" — soddaligiga qaramay, ko'p qatlamli falsafiy mazmunga ega noyob asar bo'lib, unda ontologik, aksiologik, etik, ekzistensial, gumanistik va fenomenologik g'oyalar mujassamdir. Asarning asosiy g'oyasi shundan iboratki, haqiqiy borliq ko'z bilan emas, yurak bilan idrok etiladi, insonni inson qiladigan narsa — sevgi, do'stlik va mas'uliyat, hayotning mazmuni esa insonning o'z tanlovi va ichki dunyosida shakllanadi. Muallif bolalikning pokligi va samimiyatini insonning eng katta boyligi sifatida ko'rsatadi va kattalar dunyosidagi ma'naviyatdan yiroqlikni tanqid qiladi. Shuning uchun "Kichkina shahzoda" — bu nafaqat badiiy asar, balki insonning o'zini anglash, hayotga qayta nazar tashlash uchun falsafiy manba hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Saint-Exupéry, A. de. Le Petit Prince. Paris: Gallimard, 1943. O'zbekcha tarjima: Antuan de Sent-Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda". Toshkent: Yangi Asr Avlodi, turli nashrlar.
2. Heidegger, M. Being and Time. Oxford: Blackwell Publishing, 2001.
3. Sartre, J.-P. Existentialism Is a Humanism. New Haven: Yale University Press, 2007.
4. Frankl, V. Man's Search for Meaning. Boston: Beacon Press, 2006.
5. Camus, A. The Myth of Sisyphus. Penguin Books, 2005.
6. Kant, I. Critique of Practical Reason. Cambridge University Press, 2015.
7. Scheler, M. The Nature of Sympathy. Transaction Publishers, 2008.
8. Shklovsky, V. Theory of Prose. Dalkey Archive Press, 1998.
9. Bachelard, G. The Poetics of Space. Beacon Press, 1994.



10. Chevalier, J., & Gheerbrant, A. Dictionary of Symbols. Penguin Books, 1996.
11. Abdurahmonova, M. "Adabiyot va falsafa uyg'unligi: Kichkina shahzoda asari misolida." O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 2020.
12. Karimov, B. "Simvolizm va ekzistensial motivlar talqini." Jahon adabiyoti jurnali, 2019.
13. Xolmatov, U. Falsafa asoslari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2018.